

LAYLI VA UNGA YONDOSH OBRAZLAR O`RTASIDAGI POETIKMUSHTARAKLIK

Minavarxo'jayeva Qizlarxon Qosimxo'ja qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Umar Boqiy Layli obrazini yaratishda Navoiy yo'lidan boradi. U doston voqealari va qahramonlarini tasvirlashda o'zi yashab turgan muhitdan uzoqlashmaydi.

Qahramonlarga ortiqcha vazifa yuklamaydi. Ularning munosabatini jim kuzatib turmay, o'z qarashlari orqali baho beradi (asosan qo'shimcha janrlar orqali). Bu esa uning doston yaratishda salaflardan o'rnak olgan holda o'z mustaqil yo'lidan borganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda Layli xarakterining muhim qirralaridan biri, ya'ni ishqini pinhon saqlashi sababi onasining pand-nasihati ta'sirida ekani oydinlashadi. Navoiy dostonida esa Layli va onasining bu kabi suhbatlari keltirilmaydi.

Layli xarakterining shakllanishida muhim o'rin tutgan kabi suhbatlari keltirilmaydi. Layli xarakterining shakllanishida muhim o'rin tutgan qahramon uning otasidir. Har ikki dostonida ham ota timsoli ulug'vor, vazmin qiyofada tasvirlanadi. Natijada Laylining ham, onasining ham xarakatlari, holat va xarakterlarida itoatkorlik shakllanadi.

Umar Boqiy dostonida Layli chiroq, oy, sabo, abr bilan suhbat quradi. Suhbatdan suhbatga o'tgan sari dardi orta boradi. Suhbatlari davomida yanada ko'proq najot tilaydi. Navoiy Laylining sirdoshi, yordamchisi sifatida doston qahramonlari tarkibiga Laylining enagasi obrazini ham kiritadi. Ammo Umar Boqiy doston tarkibiga sirdosh sifatida enaga obrazini emas, balki Laylining o'z onasini tanlaydi.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy va Umar Boqiyning "Layli va Majnun" dostonlarida keltirilgan maktublar har ikki ijodkorning badiiy mahoratini o'zida namoyon etishi bilan birga qahramonlar xarakterini ochishda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Umar Boqiy doston tarkibida keltirgan har bir lirik janrga alohida estetik vazifa yuklaydi. Ayniqsa, doston tarkibiga kiritilgan g'azallar qahramonning his-tuyg'ulari, ruhiyati, fikr ifodasi va voqealarning jonli chiqishiga katta ta'sir qiladi.

G'azallarning hajmi turlicha. Ular boblar so'ngida keltirilgan bo'lsa-da, asosiy matnni to'ldirish, kitobxonga qahramonlar ruhiyatini singdirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Doston tarkibida keltirilgan g'azalda mumtoz qofiyaning ridfi asliyli murdof turi qo'llanilgan: jondir, jahondir, ziyondir, ilondir, yomondir, fig'ondir, qondir, yolg'ondir.

Raviydan oldin kelgan cho'ziq "o" unlisiga xos ritmik ohang oshiq iztiroblarini bayon qilishda shoirga qo'l kelgan. G'azal shu ritmga mos keluvchi hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (maf'uvlu mafoiylyu mafoiylyu fauvlun) vaznida bitilgan. Umar Boqiy g'azalda tadrij, tashbih, qaytarish kabi san'at turlaridan mahorat bilan foydalanadi.

Umar Boqiy dostonida voqealar rivoji va qahramonlar ruhiyati ikki: bahor va kuz fasllari orqali ochib beriladi, unda yoz fasliga xos tasvirlar mavjud emas. Navoiy esa tabiatning uch fasli : bahor, yoz va kuzdan ramziy fon sifatida foydalanar ekan, syujet voqealarini shu uch fasl xususiyatiga moslaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Tursunkulovna, S. I., Lutfiniso, D., & Omonullo, M. (2020). Imitation of Thoughts and Feelings–Artistic Means of Psychology. *Solid State Technology*, 63(4), 453-457.
2. Tursunkulovna, S. I. (2022). Synthesis of national and postmodernist styles in Uzbek independence novels. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 433-436.
3. Саймуратова, И. (2021). МАЪНОЛАР ҲАҚИДАГИ АСАР. *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 6(6).
4. Quilieva, G., & Tursunkulovna, S. I. (2021). Evolutionary development of tetralogy.
5. Yakubov IA, Saymuratova IT. IMITATION OF THOUGHTS-FEELINGS–ARTISTIC MEANS OF PSYCHOLOGISM. *Bulletin of Gulistan State University*. 2020;2020(3):35-9.
6. Saymuratova, I. T. (2019). INTRODUCTION OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING CHILDREN TO PRE-SCHOOL EDUCATION. *Bulletin of Gulistan State University*, 2019(1), 58-62.
7. Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER'S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. *Open Access Repository*, 9(12), 163-174.
8. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(3), 49-53.
9. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER'S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 70.
10. Yerjanova, S., & Turayeva, D. (2023). CREATIVE LABORATORY AND ARTISTIC INTERPRETATION ISSUE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 832-841.